

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.M.No'monzoda</b>	
Geosiyosiy kurashlar sharoitida ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash muammolarining ijtimoiy-falsafiy tahlili .....	331
<b>F.A.Hamdamova</b>	
Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash mazmuni .....	334
<b>M.A.Nishonov</b>	
Yangi O'zbekistonda ichki ishlar organi xodimlari kasb etikasini rivojlantirish asoosida vatanparvarlikni tarbiyalash tizimi .....	338
<b>A.A.Meliqo'ziyev</b>	
Bo'lajak pedagoglarda hisobdorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy va ta'limiy asoslari .....	343
<b>S.S.Asatov</b>	
Yangi O'zbekistonda uchinchi renessans poydevorini qurish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning zamonaviy ahamiyati .....	346
<b>D.Q.Majidova</b>	
Jadidchilik harakatining kelib chiqish tarixi va ta'limoti.....	351
<b>S.R.Qutlimuratov</b>	
Xorazm jadidlarining ilm-fanga bo'lgan munosabati .....	355
<b>N.U.Jamalova</b>	
Globallashuv jarayonida ta'limning o'zgarishi va gumanitar fanlarning o'rni.....	360
<b>M.A.Matmusayeva</b>	
O'yinlarning lisoniy talqinida milliy-madaniy tushuncha ifodasi .....	365
<b>B.B.Xaitbayeva</b>	
Ritmik gimnastikani maktab jismoniy tarbiya tizimiga joriy etishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish .....	368
<b>F.A.Ibroximov</b>	
Talabalarda tahliliy tafakkurni shakllantirish zaruriyati .....	374
<b>R.B.Tursunov</b>	
O'quv jarayonlariga axborot texnologiyalarini joriy etish .....	379
<b>D.B.Toshaliyev</b>	
Oliy ta'lim talabalarini ma'naviy-madaniy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati va tarbiyaviy xususiyatlari.....	383
<b>U.Xolova</b>	
Falsafafiy tafakkur taraqqiyot bosqichida ma'rifat davrining boshlanishi. Sharq falsafasida ma'rifat va ma'rifatparvarlik harakatlari («Avesto» misolida ) .....	386
<b>S.E.Baymuradova</b>	
Geografiya fanini masofaviy o'qitishda mobil ta'lim texnologiyalarining imkoniyatlari.....	390
<b>B.M.Qandov</b>	
Turor Risqulov siyosiy faoliyatining boshlanishi va mamlakatdagi siyosiy jarayonlarda tutgan o'rni.....	394
<b>A.M.To'rayev</b>	
Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati bo'lg'usi kadrlarni kasbiy rivojlantirishidagi muhim omil sifatida .....	400
<b>A.A.Meliqo'ziyev</b>	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati .....	404
<b>J.Sh.Mamayusupov</b>	
Falsafa fanlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishning pedagogik jihatlari.....	408
<b>Y.S.Sidiqova</b>	
Pedagogikada neyrotexnologiyalar innovatsion vosita sifatida .....	413
<b>B.X.Karimov</b>	
Ilk uyg'onish davri Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy–falsafiy merosi va uning jamiyat jivojidagi o'rni .....	418
<b>Y.M.Namozova</b>	
Ta'lim va insonparvarlikka asoslangan "Taraqqiyot strategiyasi" jamiyat barqaror taraqqiyotining manbai sifatida .....	423



УО'К: 930.85

**YANGI O'ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QURISH  
JARAYONIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING ZAMONAVIY AHAMIYATI**

**СОВРЕМЕННОЕ ЗНАЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ И УНИВЕРСАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ  
В СТРОИТЕЛЬСТВЕ ОСНОВЫ ТРЕТЬЕГО РЕНЕССАНСА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ**

**THE MODERN SIGNIFICANCE OF NATIONAL AND UNIVERSAL VALUES IN BUILDING  
THE FOUNDATION OF A THIRD RENAISSANCE IN NEW UZBEKISTAN**

Asatov Sodiq Safarovich 

Farg'ona davlat universiteti falsafa va milliy g'oya kafedrasi tadqiqotchisi

*Annotatsiya*

*Ushbu maqolada yangi O'zbekistonda uchunchi renessans poydevorini qurishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar negizida, yoshlarda, do'stlik, mehmondo'stlik, insonparvarlik, axloqiy poklik, sahiylik, xushmuomalalik, hayolilik, ozodalik, xushchaqchaqlik, xushfe'lilik, mardlik, samimiylilik, lutfi karamlik, ona yurt va xalqiga muhabbatlilik, diyonatlilik, halollik, or-nomuslilik, mehnatsevarlik, o'tmishga hurmat, milliy g'urur, vatanparvarlik, millatparvarlik kabi insoniy faziltlarni shakllantirish ustuvor ijtimoiy masalalari yoritilgan.*

*Аннотация*

В данной статье рассматривается основополагающая роль национальных и универсальных ценностей в строительстве основы третьего ренессанса в Новом Узбекистане. Освещаются приоритетные социальные проблемы, связанные с формированием человеческих добродетелей у молодежи, таких как дружба, гостеприимство, гуманизм, моральная чистота, щедрость, доброта, креативность, свобода, жизнерадостность, оптимизм, смелость, искренность, вежливость, любовь к родине и народу, трудолюбие, честность, уважение к прошлому, национальная гордость, патриотизм и национализм.

*Abstract*

*This article discusses the foundational role of national and universal values in constructing the basis of a third renaissance in New Uzbekistan. It highlights the priority social issues related to fostering human virtues in youth, such as friendship, hospitality, humanitarianism, moral integrity, generosity, kindness, creativity, freedom, cheerfulness, optimism, courage, sincerity, courtesy, love for the homeland and its people, diligence, honesty, respect for the past, national pride, patriotism, and nationalism.*

**Kalit so'zlar:** Insonparvar, demokratik davlat, ochiq adolat, yer-suv, qo'shnichilik, identiklik, global muammolar, ma'naviy meros, barqaror taraqqiyot.

**Ключевые слова:** гуманизм, демократическое государство, открытая справедливость, земля-воды, соседство, идентичность, глобальные проблемы, духовное наследие, устойчивое развитие.

**Key words:** humanitarian, democratic state, open justice, land-water, neighborhood, identity, global issues, spiritual heritage, sustainable development.

**KIRISH**

"Inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmati oliv qadriyat hisoblanadigon insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatimi anglagan holda"<sup>[1]</sup> yoshlar axloqiy madaniyatini shakllantirish zamirida, ko'p millatli xalqimizni birlashtirish zarurati ortib bormoqda. Bugungi kunda dunyohamjamiyatida milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'zining asl mazmun-mohiyatini yoritishda, dunyodagi ko'plab xalqlar (elatlar, millatlar)ning o'tmishdagi, hozirdagi va istiqboldagi har bir xalqning o'ziga xos madaniyati, an'anasi va dinini o'z ichiga olib, ularning saqlanishi va rivojlanishi, jamiyatning barqarorligi va ijtimoiy totuvligini ta'minlash uchun. "bugungi murakkab zamonda yoshlarni jismoniy va ma'naviy barkamol insonlar etib tarbiyalash biz uchun g'oyat muhum vazifa bo'lib qolmoqda"<sup>[2]</sup>.

## ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYASI

Barcha sharq va g'arb olimlarining e'tirof qilishlaricha, Yevropada XV-XVII asrlar orasida yuzaga kelgan Birinchi Renessans yurtimizda undan bir necha yuz yil avval, ya'ni IX-XI asrlarda ro'y bergan bo'lib, ushbu ulkan yuksalishning sodir bo'lishining o'z tarixiy sabablari bor, albatta. Chunki, mazkur davrda davlat taraqqiyoti uchun juda muhim bo'lgan yangi islohotlar va qonunlar joriy qilindi, yer-suv, qo'shnichilik munosabatlardan soliqlargacha tub yangilanishlar sodir bo'ladi. Davlat yuritishdagi va siyosatdagi yangiliklar ilm-fan kishilarini ezgu g'oyalar tevaragida birlashtirdi, turli-tuman fanlarga, ayniqsa matematika, astronomiya, kimyo, tibbiyat, huquq, geodeziyaga qiziqish kuchaydi va dunyo tuzilishi haqidagi zamonaviy nazariyalarga aynan o'sha davrda asos solindi. Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad al-Farg'oniy Abu Nasr Forobi, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy, imom Buxoriy, imom Termiziy, imom Moturudi, Abul Muin Nasafiy kabi buyuk ajododlarimiz serqirra iste'dod sohiblari bo'lishlari bilan bir qatorda, o'z fanlari bo'yicha butun olamga ustozlik maqomiga erishdilar. Mazkur davr dunyo taraqqiyotining yuksalish tamoyillarini belgilab berdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Buning yorqin isboti – Xorazmda barpo etilgan Ma'mun akademiyasidir, deb ta'kidlash joiz va muhim hisoblanadi"<sup>[3]</sup>.

Umuminsoniy qadriyatlar barcha insonlar uchun umumiy bo'lgan asosiy prinsiplar, huquqlar va erkinliklarni o'z ichiga olgan bo'lib, bunday qadriyatlarga inson huquqlari, adolat, tenglik va insonparvarlik g'oyalari hamda tushunchalarini qamrab olib, ular dunyodagi turli millatlarning o'zaro munosabatlari va hamkorliklari uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning muvozanatini topish juda muhim hisoblanadi. Bu nafaqat milliy identiklikni saqlash, balki global muammolarni hal qilishda xalqaro hamjamiyatning faoliyatida bu qadriyatlarni hisobga olish, ularni hurmat qilish va rivojlantirish orqali dunyodagi totuvlik ta'minlanadi. Kelajakda xalqlar o'rtaсидаги мулодотни кенгайтиш, маданий интегратсиya almashinuvni rag'batlantirish va umumiy qadriyatlarga asoslangan hamkorlikni rivojlantirish zarur. Bu jarayonlarda har bir millatning milliy qadriyatları muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular hamjamiyatining ma'naviy asosi hisoblanadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar alohida xalqlarning va millatlarnigina emas, balki bashariyat (insoniyat)ning mulki, hazinasidir.

## TAXLIL VA NATIJALAR

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni falsafiy tahlili sifatida, yoshlarda, do'stlik, mehmono'stlik, insonparvarlik, axloqiy poklik, sahiylik, xushmuomalalik, hayolilik, ozodalik, xushchaqchaqlik, xushfe'llik, mardlik, samimiylilik, lutfi karamlik, ona yurt va xalqiga muhabbatilik, diyonatilik, halollik, or-nomuslilik, mehnatsevarlik, o'tmishga hurmat, milliy g'urur, vatanparvarlik, millatparvarlik kabi insoniy faziltlarni shakllantirish ustuvor ijtimoiy masalalardan biri ekanligin ta'kidlash mumkin.

## MUXOKAMA

Yangi O'zbekistonda, yoshlarning axloqiy madaniyatini yuksaltirishda, yoshlarni erkin fikrleshga o'rgatish, hayot mazmunini tushunib olishiga ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilish, yoshlar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish, insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish - (bir-birini tushunish, mehribonlik, shafqatlilik, irqiy va milliy kamsitishlarga qarshi kurasha olish)da, muomala odobi kabi sifatlarlarni shakllantirishdan iborat. O'z navbatida jamiyat taraqqiyoti rivojlanishida, milliy-ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash, g'oyaviy-mafkuraviy ta'sirlarning oldini-olish, hamda mafkuraviy-siyosiy muammolarning yoritish muhum konseptual ahamiyat kasb etadi. Zero milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida, xalqimizning an'analarini, milliy madaniyatini, ma'naviy merosini o'zida shakllantirish negizida yangi O'zbekistonning barqaror taraqqiyotini rivojlantirish jarayoni hozirgi kunda eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Yangi O'zbekistonda yoshlarning axloqiy madaniyatini shakllantirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2017-yil 28-iyuldagagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-son Qarori, 2018-yil 16-apreldagi "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5416-son Farmoni, 2019-yil 8-apreldagi "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5465-son Farmoyishi, 2021-yil 1-iyuldagagi PF-6255-son "2021-2026 yillarga

mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 22-dekabr, 2018-yil 28-dekabr va 2020-yil 24-yanvardagi, 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi, "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi" 22-dekabr, 2023-yil"larida hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan muhim vazifalar yangi O'zbekistonda uchinchi renessans poydevorini qurish jarayonini amalga oshirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonda milliy qadriyatlarni e'zozlash, ularni asrab-avaylash va rivojlantirish bilan birga, umuminsoniy qadriyatlarning ham muhimligini tan olinishham kerak bo'ladi.

Mamlakatimizda "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" tamoyili asosida aholi farovonligini yuksaltirish, yoshlarga oid davlat siyosatini yanada rivojlantirishga, ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga yetkazishga oid amaliy chora-tadbirlar izchillik bilan olib borilmoqda. "Ilm-fanni qadriyat sifatida anglash", avvalo, jamiyat va shaxs hayotidagi buyuk yaratuvchilik[4] qudrati, haloskorlik vazifasini teran anglash, shaxs erkinligi, so'z, matbuot va vijdon erkinligi bilan, demokratik qadriyatlarning qaror topishi bilan bog'liqligini anglashni talab etadi. Hozirgi kunda "Globallashib borayotgan va ma'rifiy sohada turli tahdidlar kuchayib borayotgan bugungi dunyoda ma'naviy hayotimizdagи o'zgarishlar dinamikasining tadrijiy rivojlanish darjasи, unga xos umumiy qonuniyatlarning amalga oshishi va bu bilan bog'liq o'ziga xos milliy xususiyatlarga alohida ahamiyat qaratishimiz darkor". Shu bois "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan dasturiy g'oya asosida yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning ma'naviy madaniyatini yangicha barqaror muhitda yuksaltirish, yoshlar ma'naviy madaniyatiga qadriyatl yondashuv modellarini jamiyat hayotiga tadbiq etishning innovations mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Har bir ijtimoiy-siyosiy davrda, yoshlarga oid tadqiqot obyektlari qadariyatlarni ijtimoiy taraqqiyot mahsuli sifatida o'z tarixiy ildizi, rivoji, vorisiylik jihatlariga ega tushuncha sifatida ijtimoiy hodisa,[5] voqeqlikdagi jarayonlarni bilish natijasitda ma'naviy madaniyatning yangi qirralari haqida tushuncha va tasavvurlarini boyitib boradilar. Shu boisdan ulardagi kelajakka qaratilgan ma'naviy madaniyat masalalarini o'rganishda quyidagilarga e'tibor berildi. Birinchidan, yoshlarning yangilikka intilishlari ma'naviy madaniyat negizida rivojlanib boradi. Ikkinchidan, yoshlar ma'naviy madaniyatining shakllanishida milliy va umuminsoniy ma'naviy madaniyat durdonalaridan oziqlanish va bahramand bo'lish asnosida o'z-o'zini anglash, o'zini isloh qilish, uning qalbida ezgulik, odamiylik, millatparvarlik, vatanparvarlik, milliy ma'naviy merosimizni qadrlash hamda shaxs bo'lib shakllanish jarayonida iste'dodi va qobiliyatini namoyon qilishdan iborat. Shundagina yoshlar jamiyatda shaxs sifatida shakllanib, ongli va faol turmush tarziga ega bo'ladilar.Uchinchidan, ma'naviy madaniyatining ijtimoiy-falsafiy aspektlarini o'rganish, tadqiq qilish asosida yoshlar ma'naviy madaniyatini yuksaltirishning ilmiy - nazariy asoslarini ishlab chiqish muhimdir.

Yosh avlodni barkamol shaxs sifatida voyaga yetishida albatta axlojni o'rni muxum sanaladi. Kishilik jamiyatining ilk davrlarida axloq normalari – yurish-turish qoidalari va odob prinsiplari kishilarning mehnat qilish jarayonida vujudga kelib, ularga rioya qilish urf-odatga, an'anaga aylanib boradi. Keyinchalik jamiyat, ijtimoiy hayot taraqqiy etib, aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralgach, mehnat taqsimoti yuz bergach, odamlarning yurish-turish qoidalari, odam axloqining mohiyati haqidagi masalalar bir butun falsafiy bilimlar sistemasiga solinadi. Yoshlar axloqiy madaniyatini shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning jamiyat ma'naviy taraqqiyotiga ta'sirining sinergetik tadqiqida qadrlash va aksiologik baho yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi[6].

Yangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyatni rivojlanishida shaxs ma'naviy madaniyati yuksalishini ta'minlashda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unlashuviga erishishda demokratik prinsiplar muhim axamiyatga ega. So'z erkinligi, qonun ustuvorligi, halq irodasi va ovozi, huquqiy asoslanganlik demokratik tamoyillarni keltirib o'tish mumkin. Shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unlashuviga erishishda xafsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik g'oyalariga ham keng o'r'in berilgan va ularni jamiyatda mustahkamlash orqali yuksalishiga alohida e'tibor qaratilgan. Bugungi kunda jamiyatda ma'naviy qadriyatlarni tiklash, axloqiy ideallarni

## ILMIY AXBOROT

shakllantirish va millatning, ayniqsa, yoshlarning intellektual salohiyatini yuksaltirish, yosh avlodni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan jismonan va ma'nан sog'lom, vatanparvar insonlar etib voyaga yetkazish uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etish talab etiladi. Negaki, ma'naviy-axloqiy rivojlanish mamlakatni modernizatsiya qilishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda tinchlik va barqarorlik hukm surayotganiga qaramay, bundan buyon ham yangi O'zbekiston diyormizni asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlash ustivor maqsadlardan bo'lib qolaveradi. Bu, bir tomondan, biz uchun, avvalo, o'z taqdirimizga o'zimiz egalik qilish huquqi, kelajagimizni o'z qo'limiz bilan barpo etish, yurtimiz boyliklaridan faqat xalqimiz va vatanimiz manfaati yo'lida foydalanish huquqini bergani yangi O'zbekiston yoshlari ham ana shu oliv ne'matdan barhamand bo'layotgani bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, mustaqillik yillarda ana shu muqaddas qadriyat va milliy an'analarga tayangan holda yashash huquqini ham beradi. Ma'lumki, mustaqillikgacha milliy o'zlikni anglashga bo'lgan tabiiy intilish johilona inkor etilar edi. Navro'z, ramazon, qurbon hayiti kabi muqaddas milliy bayramlar taqiqlangan edi. Amir Temur, Imom Buxoriy, Imom Termizi, Ahmad Farg'oniy, Baxouddin Naqshband, Hoja Ahmad Yassaviy, Najmuddin Kubro kabi buyuk ajodolarimizning, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpion, Mahmudxo'ja Behbudiy kabi milliy-ozodlik harakati fidoyilarining nomlarini xalqimiz xotirasidan o'chirib tashlashga harakat qilinar edi. Bugun ularning nomlari bilan milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz tiklanib, o'zligimizni chuqurroq anglab bormoqdamiz. Bugun kunda yangi O'zbekistonda uchunchi renessans poydevorini qurishda, yoshlar o'z milliy tarixini, boy madaniy merosini, ona tilini, madaniyatini, urf-odat va an'analarini qayta tiklanib borayotgani natijasida ularni o'zligini anglashga shart-sharoit yaratib berayotgani chuqurroq mantiqan izchil o'rganish jamiyatimizning muhim yutuqlaridan biri bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bugun yoshlar shunchaki milliy va umuminsoniy qadriyatlarini o'rganib qolayotgani yo'q. Yoshlarni xorijiy davlatlarda o'qish, bilim olib, fan-texnika yutuqlari, ilg'or texnologiyalarni egallab jamiyatimiz ijtimoiy hayotiga joriy etish, yurtimizning modernizatsiya qilish va zamonaviy jamiyat qurish yo'lidagi murakkab va keng ko'lamli vazifalarni hal etishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlash bundan buyon ham kundalik faoliyatimizning eng muhim yo'nalishi bo'lib qoladi. Xalq elat yoki millat o'z xayotini, taqdirini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar negizida qadrlasa va o'zi belgilash huquqiga ega bo'lsagina, o'zining mustaqil taraqqiyot yo'llini erkin belgilab olishi, yoshlarni o'z milliy qadriyatlar xissida tarbiyalash mumkin bo'ladi. Yoshlarning milliy-umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan ishonch va e'tiqodining mustahkam bo'lishi O'zbekiston tanlagan o'ziga hos va mos taraqqiyot yo'li talablaridan kelib chiqadi hamda yoshlar oldiga aniq vazifalarni qo'yadi[7]. Jamiyat ma'naviy hayotida milliy qadriyatga munosabat muammolarini quyidagi omillarga bog'lash mumkin. Mamlakat, xalq, millatning buguni va kelajagiga daxldor bo'lgan qadriyatlar haqida o'z fikrini ochiq va erkin bildirish ayrim salbiy holatlarning oldini olib, eng muhimi, fikrni erkin aytish muhimligi inobatga olinadi. Yoshlar fikriga hurmat bilan qarash, o'zgalar fikriga tayanish, milliy-umuminsoniy qadriyatlarni tiklash orqaligina, jamiyatda siyosiy-huquqiy madaniyat va ma'naviyat yuksaladi.

**XULOSA VA TAKLIFLAR**

Yoshlar ong-tafakkuri, sururida milliy-umuminsoniy qadriyatlarni epistemologik jihatdan shakllantirish va ularga tayanish, uning talqini va jamiyatda iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy va boshqa soxalar bo'yicha islohotlarni amalga oshirishda bugungi kunning muhim asosiy masalalaridan sifatida, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Millat uchun erkinlik adolat tantanasining oliy ifodasidir deya-e'tirof etadi. Erkinlik birovni o'ziga qaram qilishga, birovning mol-mulkini talontaroj etishga, birovga xiyonat qilishga, birovni o'ldirishga yoki zarar yetkazishga yo'l qo'ymaydi" - deb ta'kidlaydi[8]. Erkinlik bu qonunga asoslanib qonun doirasida olib yuborilgan ishlar va xatti-harakatlar axloqiy me'yor hamda huquqiy qadriyatlar jihatidan haqli hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkunki milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlar onggiga singdirish va ularni tarbiyalashda katta ta'sir eta oladigan urf-odatlari, an'analar, rasm-rusumlari va marosimlari borki, bularni bugungi kunda, kundalik hayot tarziga singdirish yoshlarning ma'naviy tahdidlar ta'siriga tushib qolishining oldini olish muhum vazifalarimizdan biri sifatida, yosh avlod ongi va tafakkuriga singdirilgan milliy va umuminsoniy qadriyatlar negizida har

qanday yot g'oyalarning ta'siriga tushib qolmaslikni ta'minlashi bilan birga ularga munosib javob qaytarish ko'nikmasini ham shakllantirishdan iborat.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Muqaddima. –Toshkent: O'zbekiston. 2023 y.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston. 2022y.
3. To'lkin Eshbek. Birinchi va ikkinchi renessans - buyuk daxolar davri. OPUBLIKOVANO. 05.10.2021 · OBNOVLENO 07.10.2021.
4. Peter Harrison. "Science" and "Religion": Constructing the Boundaries. The Journal of Religion, Vol. 86, No. 1 (January 2006), pp. 81-106. <http://www.jstor.org/stable/10.1086/497085>.
5. J.Atamirodova, M.Qurbanova. "Sharq mutafakkirlarining bolalarni axloqiy tarbiyalashdagi qarashlari" JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS. Volume-27\_Issue-5\_April\_2023.
6. Yusufaliyev O.O. "Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhidha tarbiyalash mezonlari" ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 6 | 2021. ISSN: 2181-1385.
7. Milliy istiqlol g'oyasi: Asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent.: O'zbekiston, 2019 y.
8. Milliy istiqlol g'oyasi: Asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent.: O'zbekiston, 2019 y.
9. <http://www.jstor.org/stable/10.1086/497085>.